

# O'ZBEKISTONDA MILLIY BALET RAQSINING RIVOJLANISHI

**Azamat Tillayev Miyliyevich**

*O'zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi Urganch filiali "Klassik raqsni  
o'rganish uslubiyoti" fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek milliy baletining tarixi, shakllanish jarayoni, raqs san'atining insonga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *balet, musiqa, libretto, kompozitor, teatr, orkestr, xoreografiya, baletmeyster.*

**Abstract:** *This article provides information about the history of the Uzbek national ballet, the process of its formation, and the impact of the art of dance on a person.*

**Keywords:** *ballet, music, libretto, composer, theater, orchestra, choreography, ballet master.*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об истории узбекского национального балета, процессе его становления, влиянии искусства танца на человека.

**Ключевые слова:** *балет, музыка, либретто, композитор, театр, оркестр, хореография, балетмейстер.*

Raqs san'ati - o'ziga xos mazmun va chuqur ma'noga egaligi bilan xalq qalbiga yaqindir. Ayniqsa, xalq raqlari orqali xalqning tarixi, turmush tarzi, vodiylar, voha va o'lkalariga xos ajib tarovati, mehnat jarayoni, yuksak madaniyati, insoniy fazilatlari, ayol-qizlarning ibo-hayosi, yigitlar va erkaklarning kuch-qudrati, g'ururi, bolalarning sho'xligi, bayram va xursandchiliklari tarannum etilishi bilan birga, insonning qayg'u-alamli kunlari, dard-u firog'i tasvirlanadi. Inson hayotini, tabiatdagi voqealarni raqs san'ati orqali xalqqa yetkazish uchun uning obrazliligini ta'minlashi lozim. Xoreografik obraz yaratishdagi eng muhim narsa, raqsdagagi muayyan qahramonni ko'rsatishga yordam beruvchi harakatlarni tanlab olishdir. Gavda, oyoq, qo'l harakatlarining ma'nodorligi raqs mazmuniga mos bo'lishi kerak. Shu sababli har bir raqsni sahnalashtirishdan oldin aniq maqsadni ko'zlagan holda musiqa tanlanadi. Ustoz baletmeysterlar sahnalashtirgan raqlarining xususiyati shundaki, yakka raqs yoki ommaviy raqlarning yakka ijro etiladigan qismlariga raqqosalami tanlashda ularning qobiliyati va imkoniyatini inobatga oladilar. Ularga xos xarakterli kuylarni sinchiklab tanlab, mos keladigan harakatlardan foydalanganlar.



Raqsning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy raqs an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Raqsning samoviv yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantririb kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallahib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan. Bu nafis san'at bo'lmish raqs sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rinni olgan. Raqs san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ifodasini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G'arb madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati ko'lamidan ilg'ab olish mushkul emas. Buning negizida raqqoslik san'ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o'tashi, umumbashariyat raqs san'atining go'zal uyg'unlashishiga olib kelganligini e'tirof etish lozimdir. Natijada, raqs san'ati ijodiyotida G'arb raqs san'atiga intilish, o'xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o'zining milliy musiqaviy raqs san'ati bilan birgalikda, ular asoslangan g'arbona musiqiy raqs ijodiyotini shakllantiradilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo'q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo'nalishlarni vujudga kelishini ta'minlab beradi.

O'zbekiston qadimiy madaniyatga ega mamlakat. Qadim-qadimdan o'zbek xalq o'yinlari mavjud bo'lib, uning o'ziga xos ijtimoiy ildizlari bor. Buni XIV-XVIII asrlarga oid Xitoy tasviriy san'atining tarixiy yilnomalari, aktyor va raqqosalar siymolari tasvirlangan miniaturalar ham tasdiqlaydi. Demak, raqs insoniyat taraqqiyotining boshlanishining mohiyatidir. Asl san'at an'analari asrdan-asrga o'tib kelgan, eng yaxshilari milliy marosim va urf-odatlarda saqlanib qolgan. O'zbek xalqi qadimda rivojlangan sivilizatsiyaga ega bo'lganini fan isbotlagan. Jamiyat





taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, xalq xoreografiyaning eng boy milliy an'analarini avaylab saqlagan. O'zbek raqlarini dramatik kechinmalardan tortib, ruhning nozik harakatlari gacha bo'lgan turli xil insoniy tuyg'ularni ifodalashi mumkin. Raqs-bu odamlarning ruhi. Raqs odamlarning hissiy tuyg'ularini, kechinma va quvonchlardan iborat ichki dunyosini ochib beradi. Iqtidorli yigitlarni o'rgatadigan maxsus raqs san'ati maktablari mavjud edi (bo'lajak raqqoslari bilan xoreograf ayollar ishlagan). Ajoyib raqqoslari va raqqoslari arqonda yuradiganlar va sayohatchi aktyorlar - masxarabozlar edi. "Katta o'yin", "Zang", "Qori navo" raqlari bizgacha yetib kelgan, ularning ijro mahorati eng yaxshi professional raqqosalarni ulug'lagan. Qo'qon, Xorazm, Farg'ona kabi shaharlarda o'ziga xos milliy-xoreografik qiyofaga ega bo'lgan o'zbek xalq o'yinlari rivojlangan. Vaqt o'tishi bilan o'zbek xalq o'yinlarining 3 ta asosiy maktabi aniqlandi: Farg'ona, Buxoro, Xorazm. Harakatlar ijrosi va liboslar har bir hududga xos uslub va rang-barangligi bilan farqlanadi.

Farg'ona raqs maktabi shakllarning qat'iyligi, akademizmi, chiziqlar musaffoligi bilan ajralib turadi. O'zbek raqs ustalari Usta Olim Komilov va Yusufjon Qiziq Shakarjonovlar qadimdan keng hududlarda ijro etib kelinayotgan "Katta o'yin" raqsini bugungi kunga qadar yetkazdilar.

Buxoro raqs maktabini ijro etish eng qiyin. Harakatlar baquvvat, tajovuzkor, qo'llarning harakatlari o'tkir, aniq va kutilmagan tarzda yumshoq, oyoqlari biroz egilgan, bosh g'urur bilan ko'tarilgan, tanani egish va tizzalarda aylana bo'y lab aylanish bilan juda ko'p aylanish texnikasi orqali ijro qilinadi.

Xorazm maktabi harakatlarni bajarishda, qo'l silkitishda, murakkab cho'zilish va sakrashda (erkak raqlarida) o'zgarmas temperament bilan ajralib turadi.

"O'zbekiston kompozitorlarining balet janriga qiziqishi aynan urushdan keyingi yillarda ancha jonlandi. Agar 1950-yillarda zamonaviy yoki ertak mavzusida yozilgan baletlarning musiqali sahna rivojida epik qissalar xarakteri ustun turgan bo'lsa, 1960 - 1970- yillar baletlarida, shubhasiz, 50-yillar oxirida boshlangan xoreografik san'atning umumiy yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan yirik, dramatik to'liq spektakllar yaratishga, keskin, ko'pincha fojiali syujetlar ifodalashga intilish sezildi. Xilma-xil mavzu va syujetlarda balet uchun an'anaviy mavzu bo'lgan muhabbat mavzusiga oid (M.Leviyevning "Suhayl va Mehri", I.Akbarovning "Layli va Majnun", M.Ashrafiyning "Sevgi tumor", G.Mushelning "Bibixonim" baletlari), qahramonlik va vatanparvarlik (M.Ashrafiyning "Sevgi va qilich" baleti), ommabop mavzuda (A.Kozlovskiyning "Tanova" baleti) asarlari yaratildi"<sup>26</sup>.

---

<sup>26</sup> A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova O'zbek musiqasi tarixi-T: 2018.





Urushdan keyingi davr balet san'atida G.Mushelning "Raqqosa" baleti katta ahamiyatga molikdir. Balet O'zbekistonning san'atkor yoshlari bag'ishlangan. Yoshlaming "katta" san'atga chiqishi, sahnaga intilishiga katta yoshli avlod, ko'pincha e'tiroz bilan qarar edi. Balet ssenariysining asosiga ana shunday hayotiy munozara olingan. Asar markazida dastlab qishloq havaskorlik to'garagining eng yaxshi raqqosasi, so'ng xoreografiya bilim yurtining talabasi Gulnora obrazi turadi.

"Raqqosa"ning musiqiy-xoreografik kompozitsiyasi o'zining umumiy xususiyatlarda klassik balet spektakli tuzilishiga tayanadi. Buni voqelilik, raqs va pantomima epizodlarining almashishi, yaxlit kompozitsiyaning asosi sifatida klassik va xalq raqsining mavjudligida ko'rish mumkin.

Balet musiqasi yorug' lirik ohanglarda ifodalanganadi va asosan, dramatik epizodlardan xolidir. Balet partiturasida yetakchi musiqali obraz bo'lib, o'zbek xalq lirik qo'shiqlari "Qal'a bandi" va "Bo'lmasa" vositasida ifodalangan Gulnora obrazi turadi. "Raqqosa" zamonaviy mazmunda yozilgan eng yuksak baletlardan biri hisoblanadi.

Balet spektaklining o'zgacha janrini LAkbarovning "Layli va Majnun" baleti tashkil etadi. Balet xususiyati, avvalambor, kompozitor Navoiyning mashhur dostonini o'qishi va undagi obrazlami ijodiy talqin etishiga bog'liqdir. Bir aktli balet doirasida musiqa mazkur poemaning aniq syujetini emas, balki uning hissiyotli mohiyatini: ikki dil sevgisi, bu sevgi sevinchi va baxti, hijron fojiasi va o'limini ifodalaydi. Dunyo adabiyoti ushbu mazmundagi afsonalarning juda ko'piga ega. Akbarov aynan shu nuqtayi nazardan bu abadiy syujetga yondashadi: "Layli va Majnun" baleti o'zbek ijodkori musiqasida aks ettirilgan umuminsoniy afsona sifatida qabul qilinadi.

"Katta" syujetli balet janriga 60-yillar oxirida M.Ashrafiy murojaat qildi. Uning "Sevgi tumor" baleti hind dramaturgi B.Gargining "Soxanni va Maxival" poemasi asosida yozilgan. Bu romantik rivoyat buxorolik yigit Mirzoning Hindistonga qilgan safari va uning hind qizi Soxanniga bo'lgan sevgisi, sevishganlar yo'lidagi to'siqlar va ularning fojiali halokati haqida hikoya qiladi. Melodramatik mazmun, bosh qahramonlarning hayajonga soluvchi taqdiri, dramaga fon bo'lib xizmat qiluvchi maishiy sahnalar mavjudligi mazkur baletni lirik-maishiy drama deb hisoblash imkoniyatini beradi"<sup>27</sup>.

"Sevgi tumor" uch pardas, muqaddima va xotimasi bilan olti ko'rinish, ko'p personaj va almashib turadigan epizodlardan tashkil topgan. Baletning musiqali-xoreografik dramaturgiyasini tugallangan nomerlar tamoyiliga tayanadi, u uchun

<sup>27</sup> E.Y. Saitova, N.E.Abrakulova Xoreografiya va raqs san'ati asoslari-T: 2015.





qarama-qarshi kuchlaming bir-biriga munosabati emas, balki ularni taqqoslash xarakterlidir. Baletning musiqiy tili o'zbek, hind, afg'on musiqalariga xos turlicha kuy va ritmik xususiyatlar bilan sug'orilgan. Spektakl yorqin va tomoshabinbopligi, hodisalar chizmasi qiziqlarligi va unda raqs ruhiyatining hukmronligi baletni keng tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

"1970-yilda Samarqandning 2500 yillik to'yiga G.Mushel uch pardali "Bibixonim" baletini yozdi. Ssenariya Temurning to'ng'ich xotini Bibixonimning usta Bahromga bo'lgan sevgisi va bu sevgi fojiali tugallanishi haqidagi rivoyat asos qilib olingan. Doimo lirk obrazlarni talqin qiluvchi va rivojlantiruvchi Mushelning baletlari qatorida "Bibixonim" baleti ham musiqali ifoda hamda spektakl rivoji uyg'unligi nuqtayi nazaridan eng yetuk asardir"<sup>28</sup>.

A.Kozlovskiyning uch pardali "Tanova" baleti romantik janr an'analarida yozilgan. Baletning nomi, asosan, ayollar ijo etadigan qadimiy o'zbek qo'shig'i nomidan olingan. Balet yosh Nurxonning raqqosa bo'lismi orzusida ota uyini tashlab chiqib ketishini hikoya qiladi. O'zbek qizining yangi hayotga yondashishi, uning san'atga kirib kelish mavzusi hayotdan olingan. Ko'pchilik o'zbek aktrisalarining taqdiri ana shunday bo'lgan.

M. Ashrafiyning "Sevgi va qilich" nomli yangi uch pardali baletining yuzaga kelishiga kompozitor tomonidan avval yozilgan va bo'lajak balet mavzuyligini shakkantirgan "Temur Malik" simfonik poemasi asos bo'ldi. Ikkala asar ham o'z xalqining Chingizxon o'r dasiga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan Xo'jand hokimi - mardonavor lashkarboshiga bag'ishlanadi. Birinchi bor o'zbek balet sahnasida real tarixiy shaxslar paydo bo'ldi, qahramonlik mavzusini aks ettirishda ilk tajriba qilindi. Balet san'ati xususiyatiga javoban asarda Temur Malik obraziga shoirona tus berilgan: bosh syujet yo'nalishi (ikki qarama-qarshi kuchlarning kurashi) dan tashqari sevishganlar Temur Malik va Zarina obrazi orqali lirk sevgi mavzusi ham kiritilgan.

"U.Musayevning "Afsonalar vodiysi" va "To'maris" 1982-yilda Frunze teatrida; 1984-yildan Toshkentda), I.Akbarovning "Navro'z" (G.Izmaylova va R.Farhodiy librettosi, 1983) kabi baletlari o'zbek balet san'ati rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi deyish mumkin. 1980 - yillardan boshlab, balet janri shaklan o'zgartirishga o'rta va to'ng'ich avlod vakillarining hissalari yuqori bo'ldi: S.Yudakovning "G'alaba" librettosi, M.Ashrafiyning "Rustam haqida doston" (Muqaddima Ashrafiy librettosi) va Rustam Abdullayevning "Quyoshga ta'zim" (A.Rahimov librettosi) balet-

---

<sup>28</sup> Р.Р.Искандарова Балетоведениэ-Т:2020.





oratoriyalari, Nurilla Zokirovning "Xotira doirasi"(O.Melnik librettosi, Chingiz Aytmatov asari asosida), baletlari bunga misoldir"<sup>29</sup>.

Xulosa o'mida shuni aytish joizki, O'zbekistonning sahnalashtirilgan milliy baletlari namunalarini nazariy, tarixiy jihatdan ko'rib chiqsak, xoreografiya san'atining yaratilishi va rivojlanishi murakkab jarayon edi. Birinchi "Paxta" balet spektakli paydo bo'lishi bilan respublikada xoreografiya san'atini rivojlantirish zarurligiga ishonch paydo bo'ldi. Xoreografik qahramonlar va qahramonlar qanday bo'lishi kerak va ular qanday o'zgarib, yangi avlod odamlariga aylanadi, bu o'sha davr xoreograflarining asosiy vazifasidir. Sahnaga qo'yilgan ilk baletlarda Shohida, Guland, Ozodachera, Oynisa ayol obrazlari o'ziga xos qorong'u qonunlardan xalos bo'lishga, ularga qarshi bosh ko'tarishga kuch topa olishga intilayotgan ayollar obrazlaridir.

Go'zallik dunyosi insonning shaxsiyatini doimo boyitadi va yuksaltiradi. Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rinn tutuvchi bir yo'nalishdir. Raqs san'ati - ijod ruhiyatini, his-tuyg'ularni, fikrni so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir. Inson raqsning qaysi turi bilan shug'ullanmasin, unga mumtoz raqs asoslarni o'zlashtirish halal bermaydi. Raqqos va raqqosalar butun ijodiy faoliyati davomida mumtoz raqs bilan shug'ullanishi bejiz emas. Mumtoz raqs asoslari borliqni harakat orqali tasvirlash erkinligini va o'z tanasini musiqaning ma'lum bir o'Ichovlarida nazokatli harakatlantira olish imkonini beradi.

Raqs - o'zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq; ko'ngildagi bor-yo'g'ingni ko'zlarga, harakatlarga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoq; Istaklaringni bir dasta gul shakliida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo'lmoq. Bunday buyuk tuyg'u mukammal raqs qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarning yuragida bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zbek san'atini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2017-yil 3-avgust kuni ochiq samimiyl mulqoqt ruhida uchrashuv bo'lib o'tdi. Ijodkor ziyorilar vakillari bilan uchrashuv o'tkazilib, mazkur akt yuzasidan fikr almashildi. milliy madaniyat, adabiyot va san'atni rivojlantirish masalalari. Xalqimizning boy tarixiy merosini tiklash va o'rganish maqsadida qator yirik loyihibar amalga oshirildi. Yig'ilishda Prezidentimiz madaniy hayotimizda yangi asar va

---

<sup>29</sup> III.М.Тохтасимов Педагогика классического танца-Т:2021.





spektakllarga baho berishda tanqidiy ruh kam ekanini ta'kidladi. Yurtimizning tafsinga arziydigan buyuk tarixi borligini g'urur bilan aytdi. Yurtimizning beqiyos boyliklari, buyuk ajdodlari borki, ularni unutib bo'lmaydi. Biz xalqimiz tarixini doimo yodda tutishimiz, bilishimiz kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova O'zbek musiqasi tarixi-T: 2018.202b.
- 2.E.Y. Saitova, N.E.Abrakulova Xoreografiya va raqs san'ati asoslari-T: 2015.128b.
3. Р.Р.Искандарова Балетоведениэ-Т:2020.676.
4. Ш.М.Тохтасимов Педагогика классического танца-Т:2021.1156

